

AJZIY (SAMARQANDIY) MA'NAVIY MEROJI

Jafar Shomirzayevich Mustafayev

Maxmudova Shaxzoda Dilshod

To`shkent axborot texnologiyalar universiteti

Samarqand filiali

TTKT fakulteti 23_01 guruh talabasi

Elektron pochta manzil:

maxmudovashaxzoda91@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Ajziy(Samarqandiy)ning hayoti va ijodi, ma`naviy me`rosi va jadidchilikda qo`shgan hissalarini haqida yoritilib boriladi.

Kalit so`zlar: Ilim-fanlar, ma`rifat, diniy ta`lim, adolat, qadr-qimmat, insof,qadriyat

Ajziy (taxallusi; asl ismi Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy) (1864 — Samarqand — 1927) — ma’rifatparvar shoir, tarjimon. Milliy uyg‘onish davrining yirik vakillaridan biri. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi (1926). Ajziy 1864-yil Samarqand viloyatining Jomboy tumani Halvoysi qishlog‘ida hunarmand oilasida tavallud topdi. Yoshligida otasi vafot etib, bobosi qo‘lida voyaga yetdi. Yangasi qo‘lida savod chiqardi. Samarqand, Buxoro madrasalarida o‘qigan. arab, fors, ozarbayjon tillarini mukammal bilgan. Keyinroq rus tilini ham o‘rgangan. 1901-1903-yillarda Kavkaz, bir qator Arab mamlakatlari va Rossiyaga sayohat qilgan. Jiddada ma’lum muddat rus elchixonasida tarjimon bo‘lgan. Samarqandga qaytgach, shahar yaqinidagi Halvoysi qishlog‘ida yangi usuldagagi maktab ochib, o‘qituvchilik qilgan. Lev Tolstoy hikoyalarini, Krilov masallarini, Gogolning „Shinel“ povestini o‘zbek va tojik] tillariga tarjima qilgan (1908-1910). Darslik yozib, tarjimalaridan namunalar kiritgan.xozirgi kunga kelib jadidning avlodlari Toshkent viloyati Piskent tumanida istiqomat qiladi

Ajziy 80-yillardan she’r yoza boshlagan. „Ayn ul-adab“ („Odob chashmasi“, 1916), „Ganjinai hikmat“ („Hikmat xazinasi“, 1914) kabi she’riy to‘plamlari, „Mir’oti ibrat“ („Ibrat oynasi“, 1914), „Anjumani arvoh“ („Arvohlar yig‘ini“, 1912) dostonlari nashr qilindi. „Mir’oti ibrat“da Turkistonning o‘sha davrdagi fojiali ahvoli va undan qutulish choralarini haqida bahs yuritgan. Ilm-fan, davlat, til, qonun — bularsiz hech bir millatning istiqboli yo‘q, bu to‘rt narsani qo‘lga kiritmagan millat halokatga mahkumdir, deydi. „Anjumani arvoh“da esa xonlikdagi turg‘unlik tanqid qilingan. She’rlari chuqur falsafiy mazmuni, ijtimoiy-siyosiy mushohadalari, Fuzuliy va Bedilona uslubi bilan ajralib turadi. U milliy uyg‘onish davrining barcha shoirlari singari keng ommani ma’rifatga boshlash, haq-huquqini anglatishni adabiyotning bosh mavzui deb bildi. Ajziy 1917-yil fevral inqilobidan keyin ijtimoiy harakatda bevosita

ishtirok etdi. 1918-1921-yilda Viloyat Adliya komissari lavozimida ishladi. 1922-yildan yana o‘qituvchilikka qaytgan. Samarqandda o‘zbek va tojik tillaridagi „Mashrab“, „Mulla Mushfiqiy“ kabi hajviy jurnallarni, „Zarafshon“ gazetani chiqarishda faol ishtirok etgan. „Mayna“, „Ginagina“, „Shashpar“, „Tir“, „Gumnom“, „Olmos“ imzolari bilan hajviy asarlar yozgan. Ularda sho‘ro tuzumida yuz berayotgan o‘zgarishlarni xushlamaslik, keljakdan xavotirlanish kayfiyatları seziladi. 1903-yilda Halvoysi qishlog‘ida shoirming o‘zi qurdirgan maktab hali ham bor, hozir uning nomida.

U 1890-yillarning oxirida Makkaga boradi. 1900-yilda Rusyaning Jiddadagi elchixonasida tarjimonlik qilgan. Shoир 1901-yilda ona yurtiga qaytadi va yangi tipdagi maktab ochadi. U keng ommani ma’rifatga boshlash, haq-huquqini anglatishni adabiyotning bosh mavzui deb bildi. Millatni o‘z ahvolini anglashga, dunyo bilan barobar yashamoqqa chaqirdi. Siddiqiy 1919-yilda Samarqand viloyati adliya bo‘limi mudirining o‘rribosari, keyinroq esa bo‘lim mudiri bo‘lib ishladi. 1922-yilda yana asl kasbi muallimlikka qaytdi. 1927-yilda esa vafot etdi.

Shoир adabiy merosi professor Begali Qosimov tomonidan to‘plab, nashr qilingan. „Ayn ul-adab“ („Odob ko‘zi“, Samarqand, 1916, o‘zbekcha), „Ganjinai hikmat“ („Hikmat xazinasi“, Samarqand-Toshkent, 1914, tojikcha) she’riy to‘plamlari, „Mir’oti ibrat“, „Anjumanı arvoh“ kabi poemalari, publisistik maqolalari, Gogol „Shinel“i tarjimasи, hikoyalari ijodining serqirraligidan dalolat beradi.

She’rlari Kavkazda „Mulla Nasriddin“, „Dirilik“ jurnallarida bosilgan.

Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy. Milliy uyg‘onish. To‘plam. 1993.

Tursunqul (Rahim Hoshim). Siddiqiy to‘g‘risida mulohazalar. Yuqoridagi to‘plam, 86-95 betlar.

Milliy uyg‘onish davrining yirik vakillaridan biri, shoirk tarjimon Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy — Ajziy 1864 yil Samarqand viloyatining Jomboy tumani Halvoysi qishlog‘ida hunarmand oilasida tavallud topdi. Yoshligida otasi vafot etib, bobosi qo‘lida voyaga yetdi. Yangasi qo‘lida savod chiqardi. Keyin Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsilni davom ettirdi. Sharq klassik adabiyotini qunt bilan o‘rganadi, arab, fors, ozarbayjon va keyinchalik rus tilini o‘zlashtiradi.

1880 yillardan o‘zi ham an‘anaviy usuldagи she’rlar mashq qila boshladi. Biroq zamonasining buyuk kishilaridan biri sifatida e’tirof etilishiga uning ma’rifatchilik faoliyati va ijodi sababdir.

1901 yil haj safariga otlanadi. Bir qator Sharq mamlakatlarida bo‘lib, islom dunyosidagi yangiliklar bilan tanishadi, bir necha muddat Jiddada Rusiya elchixonasida tilmochlik qiladi. So‘ng Moskva, Peterburg shaharlarini aylanib, Tiflisga o‘tadi. Nihoyat Samarqandga qaytib, 1903 yil Halvoysi qishlog‘ida yangi maktab ochadi.

Shoир keyingi butun hayotini ana shu muqaddas ishga sarf etdi. O‘zi ochgan maktabda tabiiy fanlar, arab hamda rus tillaridan saboq berdi, darsliklar tuzdi. L.

Tolstoy hikoyalarini, Krilov masallarini, Gogolning «Shinel» povestini o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilgan (1908—10). Darslik yozib, tarjimalaridan namunalar kiritgan. «Ayn ul-adab» («Odob chashmasi», 1916), «Ganjinai hikmat» («Hikmat xazinasi», 1914) kabi she’riy to‘plamlari, «Mir’oti ibrat» («Ibrat oynasi», 1914), «Anjumani arvoh» («Arvochlар yig‘ini», 1912) dostonlari nashr qilindi. «Mir’oti ibrat»da Turkistonning o’sha davrdagi fojiali ahvoli va undan qutulish chorralari haqida bahs yuritgan. Ilm-fan, davlat, til, qonun — bularsiz hech bir millatning istiqboli yo‘q, bu to‘rt narsani qo‘lga kiritmagan millat halokatga mahkumdir, deydi. «Anjumani arvoh»da esa xonlikdagi turg‘unlik tanqid qilingan. She’rlari chuqur falsafiy mazmuni, ijtimoiy-siyosiy mushohadalari, Fuzuliy va Bedilona uslubi bilan ajralib turadi. U milliy uyg‘onish davrining barcha shoirlari singari keng ommani ma’rifatga boshlash, haq-huquqini anglatishni adabiyotning bosh mavzui deb bildi.

Siddiqiy vaqtli matbuot nashrlarida ham faol ishtirok etdi.

Vatan, ilm-ma’rifatga bag‘ishlangan maqolalari bilan Qozon, Orenburg va Kavkazdagagi nashrlarda ham qatnashdi.

Siddiqiy 1917 yil fevral inqilobidan keyin ijtimoiy harakatda bevosita ishtirok etdi. 1918—21 yilda Viloyat Adliya komissari lavozimida ishladi. 1922 yildan yana o‘qituvchilikka qaytgan. Samarqandda o‘zbek va tojik tillaridagi «Mashrab», «Mulla Mushfiqiy» kabi hajviy jurnallarni, «Zarafshon» gazetasini chiqarishda faol ishtirok etgan. «Mayna», «Ginagina», «Shashpar», «Tir», «Gumnom», «Olmos» imzolari bilan hajviy asarlar yozgan. Ularda sho‘ro tuzumida yuz berayotgan o‘zgarishlarni xushlomaslik, keljakdan xavotirlanish kayfiyatları seziladi. 1903 yilda Halvoyi qishlog‘ida shoirning o‘zi qudirigan maktab hali ham bor, hozir uning nomida. U O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi (1926).

Siddiqiy 1926 yili qattiq kasallanib, 1927 yilning iyul oyida Samarqandda vafot etadi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Ж.Мустафаев. Синергетика замонавий фан сифатида. “Агарар фан ютуқларида талабаларнинг иштироки” мавзусидаги илмий-амалий конференция. // Тўплам (225-228 бетлар). Самарқанд ҚХИ. 2010.
2. Ж.Мустафаев. Ночизиқли тафаккурда ижтимоий жараёнлар тавсифи. Зиёкор ж. 2009. №5, 19 бет
3. Ж.Мустафаев. Nochiziqli tafakkur va nochiziqli tizimlarning o’zaro munosabatining ba’zi masalalari. Falsafa va huquq institute, O.Fayzullayevning 90 yillik yubileyi, konferensiya materialllari, Toshkent- 2011, 92 – bet
4. Ж.Мустафаев. XXI asrda fan-texnika taraqqiyoti va ularning ijtimoiy hayotga ta’siri. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materialllari, Qishloq xo’jaligida innovasion texnologiyalarni joriy qilish muammolari, SamQXI, 2012, 240 bet.

5. Ж.Мустафаев. Ёшларнинг маънавий ҳаёти ва глобаллашув даври. Ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбиялашнинг долзарб масалалари. Талабалар онгидаги китобхонлик маданиятини шакллантириш. Республика илмий-назарий конференцияси материаллари.2019 йил. 20 апрел. 312 бет.
6. Ж.Мустафаев. Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий таҳдидлар қарши курашда оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Ҳозирги глобаллашув шароитида маънавий мероснинг ўрни, роли ва аҳамияти мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд. СамИСИ.2020 йил. 20 май. 306 бет
7. Ж.Мустафаев. Ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбиялашнинг ижтимоий жиҳатлари. Ҳозирги глобаллашув шароитида маънавий мероснинг ўрни, роли ва аҳамияти мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд. СамИСИ.2020 йил. 20 май. 306 бет
8. Ж.Мустафаев. Электрон ижорат ва унинг жамиятда рақамли иқтисодиётни шакллантириш муаммолари. “Маънавий меросда ворислик ва унинг XXI аср таълим-тарбиясидаги урни» мавзусидаги Республика илмий конференцияси. 2021 йил 20 май. Самарканд.

.